

MEHNAT VA MEHNATSEVARLIK HAQIDAGI NEMIS VA O'ZBEK
MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI.

Hurram Rahimov

ff.d., professor O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti Toshkent shahri

Aslonova Munisa Mirg'olibovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti 2-kurs magistranti Toshkent shahri

Annotatsiya: Ushbu maqolada, mehnat va mehnatsevarlik haqidagi nemis va o'zbek maqollarining semantik tahlili va ularning tarjimasidagi o'xshash va farqli tomonlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: maqol, semantik, leksik, qiyosiy tilshunoslik, mehnat, mehnatsevarlik, qiyosiy tahlil

Abstract: This article analyzes the semantic analysis of German and Uzbek proverbs about hard work and hard work and the similarities and differences in their translation

Keywords: proverb, semantic, lexical, comparative linguistics, labor, hard work, comparative analysis.

Maqollar ustida qaysi tilda ish olib borilishidan qat'iy nazar ularning semantik xususiyatlariga to'xtalish ishning eng muhim qirralarini ochib berishga yordam beradi. Ko'pincha qiyosiy tilshunoslikda ikki tilda mavjud terminlarning ma'nolarini tahlil qilish va bu borada tildagi mavjud leksemalarning yangi qirralarini kashf etish muhimdir.

Ushbu maqolada ayrim nemis va o'zbek maqollarining semantik tahlillarini qilgan holda, maqollarning har ikkala tildagi

o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz. Bu orqali o'zbek va nemis tillaridagi maqollarning har ikki tildagi semantik jihatdan ishlatilish o'rnini o'rganamiz. Maqollarning semantik doirasi juda keng bo'lgani uchun ham jamiyatning har bir sohasida qo'llashimiz mumkin. Bu borada nemis va o'zbek xalq maqollari ma'no jihatdan ham, qo'llash jihatdan ham bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. O'zbek va nemis tilidagi maqollarni hajm jihatidan o'rganib borish asnosida aynan mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning ko'proq uchrashiga guvoh bo'ldik. Buning sababini turlicha keltirishimiz mumkin. Masalan, mehnat qilib obro' topish, o'z ehtiyojlarini qoplay bilish kabi masalalar nafaqat qadim zamonlarda, balki bugungi kunda ham o'z isbotini topmoqda. Har qanday yutuqning zaminida qattiq mehnat, tirishqoqlik va kuchli istak yotadi. Mehnat qilish va mehnatsevar inson bo'lish kabi masalalarga nemis va o'zbek xalqi tomonidan jiddiy qaralishi o'zbek va nemis maqollarida o'z aksini topadi. Aynan shu mavzudagi maqollarni tahlil qilish jarayonida, hamisha mehnatsevarlik ijobiy baholanganligini, dangasalik va ishyoqmaslik esa qattiq qoralanishi kabi masalalarning yoritilishini kuzatamiz. Shu bois ushbu maqolada ayrim mehnat va mehnatsevarlik haqidagi o'zbek va nemis maqollarining semantik xususiyatlarini badiiy asarlardan foydalangan holda ko'rib, qiyoslab va tahlil qilishga harakat qilamiz.

Quyida ushbu mavzuga oid ayrim nemis maqollarining o'zbek tilidagi ma'nolari va muqobil variantlarini ko'rib chiqamiz.

Arbeit-Mehnat

№	Nemischa maqol	O'zbekcha ma'nosi	O'zbekcha ekvivalenti
1	Arbeit schlägt Feuer aus dem Stein.	Mehnat toshdan olov chiqaradi.	Matonat va mehnat bilan hamma qiyinchiliklar yengiladi.
2	Arbeit hat bittere Zehel, aber süße Frucht	Mehnatning o'zi achchiq, lekin mevasi shirin.	Mehnat qancha o'g'ir bo'lsa, Ketni shuncha shirin bo'ladi. Mehnatning tagi rohat.
3	Was du heute kannst morgen, das verschiebe nicht auf morgen!"	Bugungi qiladigan ishingni ertaga qoldirma	Bugungi ishni ertaga qo'yma
4	Jeder Arbeiter ist seines Lohnes wert.	Har bir ishchi o'z maoshiga arziydi.	Ishiga yarasha ish haqi.
5	Viele zum Rat, wenige zur Tat.	Maslahati ko'p, harakati oz.	Gap desa qop-qop, ish desa betob.
6	Wer rastet, der rostet	Kimki doimiy ishlamasa, uning ish qobiliyati pasayadi.	Yurgan daryo o'tirgan bo'ya. Sahar tursang, rizqli bo'lasan.
7	Wie die Arbeit, so der Lohn	Mehnatni qanday bo'lsa, haqi ham shunday bo'ladi.	Mehnatga yarasha ish haqi
8	Wer nicht arbeitet, l auch nicht essen.	Kimki mehnat qilmasa, u ovqat yemasligi lozim.	Ishlamagan –tishlamaydi.
9	Sich regen bringt Segen	Kimki harakat qilsa, muvafaqqiyatga erishadi.	Harakatda –barokat.
10	Es sind nicht alle Köche, die lange Messer tragen"	Katta pichog'i bor hamma ham oshpaz bo'lavermaydi.	Ish bilsang tuzarsan, bilmasang buzarsan. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar.
11.	Wer A sagt, muss auch B sagen.	Kim A desa B ni ham aytishi kerak.	Boshlagan ishni oxiriga yetkazish lozim.
12	Alles Glück hängt an Mut und Arbeit ab.	Baxt jasorat va mehnatga bog'liq.	Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylilik.
13	Es ist nicht von der Eile, wie langsam du gehst, solange du nicht stehen bleibst.	Muhimi sekin harakatlanishingiz, balki to'xtab qolmasligingdir.	Qimirlagan qir oshar.
14	Arbeit ist des Lebens Würze.	Ish hayotning ziravoridir.	Mehnatning tagi rohat.

Ko'rib turganingizdek mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning o'zbek va nemis tillarida mavjudligi har ikkala xalqning o'ta mehnatsevar va ishchan ekanligini ko'rsatadi. Shu bois qayd etgan barcha maqollarimiz xalqlarning turmush tarzida o'ta keng ko'lamda foydalaniluvchi mavzulardan biridir. Shu o'rinda ularning semantik doirasi haqida so'zlasak ham huddi bir xil narsani ya'ni maqollarning qo'llash ma'nosi aynan bir xil ekanligini tushuna olamiz.

Masalan: "Es sind nicht alle Köche, die lange Messer tragen" maqolini o'zbek tiliga tarjima qilganda "Katta pichog'i bor hamma ham oshpaz bo'lavermaydi" ma'nosini beradi. Bu maqol orqali biz o'ta ish yoqmas, dangasa biroq juda so'zamol kishilarni tasvirlaymiz.

Ammo biz nemischa maqolning o'zbekchadagi tarjimasini yoki ma'nosini har doim ham o'zbek tiliga tayyor holda ishlatolmaymiz. Buning juda chiroyli va muqobil varianti sifatida "Ish bilsang tuzarsan, bilmasang buzarsan"ni keltirishimiz mumkin.

O'zbek tilida bu maqolga ekvivalent sifatida

"Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining".

"Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar."

„Bilmagandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi“
maqolidan ham foydalansak bo'ladi.

Fikrimizning yana bir isboti sifatida nemischa "Alles Glück hängt von Mut und Arbeit ab" maqolini ko'rib chiqsak. Maqolning o'zbekchadagi tarjimasi "Baxt jasorat va mehnatga bog'liq". Maqolning ma'nosi shuki, mehnat qilgan kishi baxtli bo'lishga haqlidir. Bir qarashda maqol tarbiyaviy ahamiyatga ega va mehnat qilishga undovchi jihatlarni ko'rsatadi. Ammo o'zbekchadagi tarjima har doim ham maqolning aslini saqlab qolmasligi mumkin. Va biz buni har doim og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham tilga tayyor holda faol ishlata olmaymiz. Maqoldan kelib chiqayotgan ma'no har doim ham uni tashkil etayotgan so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmasligi mumkin, balki uning obrazlilik bilan bog'liqdir. Shu o'rinda maqollardagi obrazlilikning kuchlilik bir maqolni har ikkala tilda bir xil talqin etilishiga olib keladi. Qadim- qadimdan beri ishlatilib kelinayotgan bu maqolning o'zbekcha ekvivalenti sifatida "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik" ni keltirishimiz mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, maqol bugungi kunda ham nemis va o'zbek xalqlari orasida juda faol hisoblanadi.

Buni kundalik turmushimizda ko'p ishlatishimiz. Ushbu maqol nemis xalq maqollari sirasiga kirishi nemis xalqining xuddi o'zbek xalqi singari mehnatsevar ekanligidan dalolat beradi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, maqollardagi pand-nasihat ohangidagi xususiyatlar insonga hamisha to'g'ri yo'l ko'rsatadi va yomon oqibatlardan ogohlantiradi.

Masalan:

"Sich regen bringt Segen" maqolini tahlil qiladigan bo'lsak, u

o'zbekcha muqobil variant sifatida: "Harakatda barokat" maqoliga to'g'ri keladi. Maqolning har ikkala tildagi umumiy ma'nosi shuki, qattiq mehnat qilib erishilgan narsa har doim qadrli bo'ladi va oilasi va uy -ro'zg'origa baraka kiradi. Mehnat qilgan kishining ishida doimo baraka bo'ladi va topgani ham qadrli bo'ladi. Qisqacha qilib bayon etadigan bo'lsak, harakatda barokatdir. Ushbu maqolamizda mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning maqollar va xalq mentalitetini ifodalovchi mashhur "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman", degan edi. Darhaqiqat, o'zbek va nemis xalq maqollari tarkibida mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning mavjudligi yozuvchi keltirgan fikrning isboti bo'la oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik albatta doimo ustunlik qiladi.

Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Aynan biz ko'rib, o'rganib, tahlil qilib chiqqan maqol va matallarda ham ushbu

holatni ko'rishimiz mumkin. Nemis maqollarini o'zbek tiliga yoki o'zbek maqollarini nemis tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma'no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi.

Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma'no-mazmunini chuqur o'rganib chiqishni talab qiladi. Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o'zining asl ma'nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin. Xalq og'zaki folklor ijodining sara namunalari hisoblanmish maqollar qaysi tilda yangrashidan qat'iy nazar, agar ularning ma'no mazmuni, mohiyati insonlar tomonidan chuqur anglab yetilsa, insonlarga hamisha to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi yo'l boshchi sifatida xizmat qilaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A.A. Matn – kognitiv faoliyat mahsuli // Tiltaraqqiyotining qonuniyatlari. – Samarqand: SamDCHTI, 2009. - 23b.
2. Bakieva G.X. Semantika: // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2003.- № 2. S.5-9.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy norma ning tiplari). II qism. –Toshkent: Navro'z, 1998. – 133b.
4. Lexikon sprachwissenschaftlicher Termine [Hrsg. G. Conrad] - 1 Aufl. – Leipzig: Bibliographisches Institut, 1985, S.228. Vol. 27 (2022): Miasto Przyszłości 91 Miasto Prz.
5. Imyaminova Sh. Kamolova Sh. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'atining tuzish prinsiplari.//
- 6.Redensarten.-T: "Zamin nashriyoti".2020.
- 7.Reformatskiy A.A. Tilshunoslikka kirish. - Moskva: Aspect Press, 2004, 128.
- 8.Rudi Konrad. Lexikon der sprachwissenschaftliche Termini, VEB. Bibliografiya Institut , Leyptsig, 1988.
- 9.Axmedova Ugiljon Kuronboyevna, Ingliz va o'zbek xalq maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari, -qo'lyozma,Urganch -2014
10. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent 2005
11. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. Toshkent-2012
12. Komissarov V. N. Лингвистика перевода. М. 1980
13. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent , "O'qituvchi" - 1983
14. Ўзбек халқ мақоллари. –Тошкент, F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1989